

# AGRO KIMYO HIMOYA VA O'SIMLIK KARANTINI

ISSN 2181-8150

*Ilmiy-amaliy jurnal*



**№4. 2024**



89-bet

**KUCHSIZ SHO'RLANGAN  
TUPROQ-IQLIM SHAROITIDA  
OQBOSH KARAM NAV VA  
DURAGAYLARINING  
MAQBUL EKISH SXEMA-  
LARINI ANIQLASH**

101-bet

**SOXTA KASHTAN  
URUG'LARI TARKIBIDAGI  
PESTITSIDLAR TAHLILI**



Стр. 176



**ВЛИЯНИЕ НОВОГО ОРГАНИ-  
ЧЕСКОГО БИОУДОБРЕНИЯ  
UNUMDOR НА БИОМЕТРИ-  
ЧЕСКИЕ ПОКАЗАТЕЛИ РОСТА  
И РАЗВИТИЯ ПРОРОСТКОВ  
ПШЕНИЦЫ И КУКУРУЗЫ**

## SOYA NAVLARI HOSILDORLIGINING EKISH MUDDAT VA ME‘YORLARIGA BOG‘LIQLIGI

**Abduazimov Akbar Muxtorovich**, q/x.f.f.d., professor,  
 “TIQXMMI” Milliy tadqiqot universitetining Qarshi Irrigatsiya va agrotexnologiyalar instituti  
**Ismatova Mahliyo Asliddin qizi**, tayanch doktorant,  
 Qarshi muhandislik-iqtisodiyot instituti.

**Annotatsiya.** Ushbu maqolada soyaning “O‘zbek-6” va “Nafis” navlarining hosildorligiga ekish muddati va me‘yorlarining bog‘liqligi tahlil qilingan. Tadqiqot natijalariga ko‘ra o‘simliklardagi hosil o‘zgarishining ko‘rsatkichlari qayd etildi.

**Kalit so‘zlar:** urug‘, nav, variant, o‘simlik, ildiz, ekish sxemasi, vazn, dala, tajriba, muddat, ko‘rsatgich, unuvchanlik, hosil.

**Аннотация.** В данной статье проанализирована зависимость сроков и норм посева от урожайности сортов сои «Узбек-6» и «Нафис». По результатам исследований фиксировали изменение показателей урожайности растений.

**Ключевые слова:** семена, сорт, вариант, растение, корень, схема посадки, масса, поле, опыт, период, показатель, плодородие, урожайность.

**Abstract.** In this article, the dependence of planting time and standards on the productivity of soybean varieties “Uzbek-6” and “Nafis” is analyzed. According to the results of the research, the yield change indicators of the plants were recorded.

**Keywords:** seed, variety, variant, plant, root, planting pattern, weight, field, experience, period, indicator, fertility, yield.

**Kirish.** Dala tajribalarida soyaning “O‘zbek-6” va “Nafis” navlari erta (01.04), o‘rta (15.04) va kech (01.05) muddatlarda gektariga 325 ming, 350 ming, 375 ming hamda 400 ming unuvchan urug‘ hisobida ekildi. Tadqiqotning dastlabki yilida soya navlarining hosildorlik ko‘rsatkichlari turli ekish muddatlari va me‘yorlarining ta‘sirida o‘zgarishi aniqlandi. Soya navlarining ekish muddat va me‘yorlarini o‘rganish bo‘yicha olib borilgan tadqiqotlar natijasiga ko‘ra, hosildorlik eng past ko‘rsatkich “Nafis” navi erta muddatda ekish me‘yori 325 ming dona unuvchan urug‘/ga hisobida ekilganda 21,9 s/ga ni tashkil qilgan bo‘lsa, eng yuqori ko‘rsatkich “O‘zbek-6” navi o‘rta muddatda ekish me‘yori 375 ming dona unuvchan urug‘/ga hisobida ekilganda 39,4 s/ga ni tashkil qildi (1-jadval).

Qo‘llanilgan agrotexnik tadbirlar bo‘yicha olingan hosil tahlil qilinganda, soya navlarining don hosildorligi erta muddatda 325 ming dona unuvchan urug‘/ga hisobida ekilganda “O‘zbek-6” navida 24,7 s/ga, “Nafis” navida 21,9 s/ga, 350 ming dona unuvchan urug‘/ga hisobida ekilganda “O‘zbek-6” navida 26,3 s/ga, “Nafis” navida 27,7 s/ga, 375 ming dona unuvchan urug‘/ga hisobida ekilganda “O‘zbek-6” navida 34,1 s/ga, “Nafis” navida 33,8 s/ga, 400 ming dona unuvchan urug‘/ga hisobida ekilganda “O‘zbek-6” navida 32,8 s/ga, “Nafis” navida 31,6 s/ga bo‘lganligi qayd qilindi.

Soya navlarining don hosildorligi o‘rta muddatda 325 ming dona unuvchan urug‘/ga hisobida ekilganda “O‘zbek-6” navida 24,7 s/ga, “Nafis” navida 23,0 s/ga, 350 ming dona unuvchan urug‘/ga hisobida ekilganda “O‘zbek-6” navida 28,6 s/ga, “Nafis” navida 29,0 s/ga, 375 ming dona unuvchan urug‘/ga hisobida ekilganda “O‘zbek-6” navida 39,4 s/ga, “Nafis” navida 34,5 s/ga, 400 ming dona unuvchan urug‘/ga hisobida ekilganda “O‘zbek-6” navida 37,9 s/ga, “Nafis” navida 32,3 s/ga bo‘lganligi aniqlandi.

Kech muddatda 325 ming dona unuvchan urug‘/ga hisobida ekilganda “O‘zbek-6” navida 24,9 s/ga, “Nafis” navida 22,2 s/ga, 350 ming dona unuvchan urug‘/ga hisobida ekilganda “O‘zbek-6” navida 28,1 s/ga, “Nafis” navida 28,1 s/ga, 375 ming dona unuvchan urug‘/ga hisobida ekilganda “O‘zbek-6” navida 39,2 s/ga, “Nafis” navida 34,3 s/ga, 400 ming dona unuvchan urug‘/ga hisobida ekilganda “O‘zbek-6” navida 33,7 s/ga, “Nafis” navida 32,3 s/ga bo‘lganligi qayd qilindi. Turli ekish muddat va

me‘yorlarda ekilgan soya navlarida qo‘shimcha don hosilining shakllanishi tahlil qilinganda, ekish muddatlari o‘rtasida 5,3 s/ga gacha, ekish me‘yorlari o‘rtasida 14,8 s/ga gacha va navlar o‘rtasida 5,6 s/ga gacha qo‘shimcha hosil shakllanishi aniqlandi. Soya navlarida qo‘shimcha hosil shakllanishiga eng katta ta‘sir ekish me‘yorlari o‘rtasida kuzatildi.

O‘rta muddatda ekilganda erta muddatda ekilganga nisbatan ekish me‘yori 325 ming unuvchan urug‘ hisobida ekilganda “Nafis” navida 1,1 s/ga, ekish me‘yori 350 ming unuvchan urug‘ hisobida ekilganda “O‘zbek-6” navida 2,3 s/ga, “Nafis” navida 1,2 s/ga, ekish me‘yori 375 ming unuvchan urug‘ hisobida ekilganda “O‘zbek-6” navida 5,3 s/ga, “Nafis” navida 0,8 s/ga, ekish me‘yori 400 ming unuvchan urug‘ hisobida ekilganda “O‘zbek-6” navida 5,1 s/ga, “Nafis” navida 0,7 s/ga qo‘shimcha hosil shakllandi.

O‘rta muddatda ekilganda kech muddatda ekilganga nisbatan ekish me‘yori 325 ming unuvchan urug‘ hisobida ekilganda “Nafis” navida 0,8 s/ga, ekish me‘yori 350 ming unuvchan urug‘ hisobida ekilganda “O‘zbek-6” navida 0,5 s/ga, “Nafis” navida 0,9 s/ga, ekish me‘yori 375 ming unuvchan urug‘ hisobida ekilganda “O‘zbek-6” navida 0,3 s/ga, “Nafis” navida 0,2 s/ga, ekish me‘yori 400 ming unuvchan urug‘ hisobida ekilganda “O‘zbek-6” navida 4,2 s/ga qo‘shimcha hosil olindi.

Ekish me‘yorlari bo‘yicha tahlil qilinganda, erta muddatda ekish me‘yori 325 ming unuvchan urug‘ hisobida ekilganga nisbatan ekish me‘yori 350 ming unuvchan urug‘ hisobida ekilganda “O‘zbek-6” navida 1,7 s/ga, “Nafis” navida 5,9 s/ga, 375 ming unuvchan urug‘ hisobida ekilganda “O‘zbek-6” navida 9,5 s/ga, “Nafis” navida 11,9 s/ga, 400 ming unuvchan urug‘ hisobida ekilganda “O‘zbek-6” navida 8,1 s/ga, “Nafis” navida 9,7 s/ga qo‘shimcha hosil to‘plandi. O‘rta muddatda ekish me‘yori 325 ming unuvchan urug‘ hisobida ekilganga nisbatan ekish me‘yori 350 ming unuvchan urug‘ hisobida ekilganda “O‘zbek-6” navida 3,9 s/ga, “Nafis” navida 6,0 s/ga, 375 ming unuvchan urug‘ hisobida ekilganda “O‘zbek-6” navida 14,8 s/ga, “Nafis” navida 11,5 s/ga, 400 ming unuvchan urug‘ hisobida ekilganda “O‘zbek-6” navida 13,2 s/ga, “Nafis” navida 9,3 s/ga qo‘shimcha hosil qayd qilindi.

Kech muddatda ekish me‘yori 325 ming unuvchan urug‘ hisobida ekilganga nisbatan ekish me‘yori 350 ming unuvchan urug‘ hisobida ekilganda “O‘zbek-6” navida 3,1 s/ga, “Nafis”

## Ekish muddat va me'yorlarning soya navlari hosildorligiga ta'siri, s/ga (2023 yil)

№	Ekish muddati	Ekish me'yori	Nav nomi	Qaytariqlar			O'rtacha hosil, s/ga
				I	II	III	
1	Erta muddat (01.04)	325 ming/ga	O'zbek-6	23,8	24,8	25,4	24,7
2			Nafis	21,4	21,5	22,7	21,9
3		350 ming/ga	O'zbek-6	26,8	26,6	25,6	26,3
4			Nafis	27,0	27,8	28,4	27,7
5		375 ming/ga	O'zbek-6	35,2	33,5	33,7	34,1
6			Nafis	34,1	33,0	34,2	33,8
7		400 ming/ga	O'zbek-6	33,0	32,7	32,7	32,8
8			Nafis	32,6	30,9	31,3	31,6
9	O'rta muddat (15.04)	325 ming/ga	O'zbek-6	24,0	24,6	25,4	24,7
10			Nafis	22,8	23,2	23,0	23,0
11		350 ming/ga	O'zbek-6	28,3	28,7	28,8	28,6
12			Nafis	28,4	28,5	30,0	29,0
13		375 ming/ga	O'zbek-6	40,3	39,6	38,4	39,4
14			Nafis	35,1	34,1	34,4	34,5
15		400 ming/ga	O'zbek-6	38,9	37,6	37,2	37,9
16			Nafis	32,8	32,2	31,8	32,3
17	Kech muddat (01.05)	325 ming/ga	O'zbek-6	24,0	25,4	25,4	24,9
18			Nafis	22,0	21,9	22,8	22,2
19		350 ming/ga	O'zbek-6	27,2	28,8	28,2	28,1
20			Nafis	27,8	28,8	27,6	28,1
21		375 ming/ga	O'zbek-6	40,1	38,1	39,3	39,2
22			Nafis	35,2	33,8	33,9	34,3
23		400 ming/ga	O'zbek-6	34,2	34,0	32,9	33,7
24			Nafis	33,2	31,8	31,9	32,3

navida 5,8 s/ga, 375 ming unuvchan urug' hisobida ekilganda "O'zbek-6" navida 14,2 s/ga, "Nafis" navida 12,1 s/ga, 400 ming unuvchan urug' hisobida ekilganda "O'zbek-6" navida 8,8 s/ga, "Nafis" navida 10,1 s/ga qo'shimcha hosil qayd qilindi.

**Xulosa.** Qashqadaryo viloyatining och tusli bo'z tuproqlari sharoitida soya navlarini o'rta muddatda (15.04) ekilganda eng yuqori hosildorlikka erishilib, erta muddatga nisbatan 5,3 s/

ga gacha va kech muddatga nisbatan 4,2 s/ga gacha, ekish me'yorlari bo'yicha 375 ming dona unuvchan urug' hisobida ekish 325 ming dona unuvchan urug' hisobida ekishga nisbatan 14,8 s/ga gacha, 350 ming dona unuvchan urug' hisobida ekishga nisbatan 11,1 s/ga gacha, 400 ming dona unuvchan urug' hisobida ekishga nisbatan 5,5 s/ga gacha qo'shimcha hosil shakllanishiga erishiladi.

## ADABIYOTLAR:

- Atabayeva X., Sattorov X., //Agro ilm.2019 yil, №4, 36-37 betlar.
- Yormatova D., Hamrayeva M., Nodirov A., Soya-istiqbolli ekin // O'zbekiston qishloq xo'jaligi jurnali.-2017, №3.b-13
- Атабаева X., Саттаров М. //Агро илм. 2019 й, №4, 36-37 бетлар.
- Кадыров С.Б. Влияние норм высева и способа посева сои на полевую всхожесть семян // Селекция и агротехнология сортов сои северного экотипа: Сб.науч.прак.конф. Воронеж, ФГОУ ВПО "Воронежский ГАУ им.К.Д.Глинки", 2006. С. 17-22.
- Льгов М.Н. Технология возделывания СОИ назерно при орошении. Автореферат. М 2002.
- Firas Ahmed Alsajri, Chathurika Wijewardana, J. Trenton Irby, Nacer BellalouiL, Jason Krutz, Bobby Golden., Developing functional relationships between temperature and soybean yield and seed quality //Agronomy 2020;112:194-204

# “AGRO KIMYO HIMOYA VA O‘SIMLIKLAR KARANTINI”

Ilmiy-amaliy jurnal

## BOSH DIREKTOR

Mariyamxon  
BOQIYEVA

## MAS‘UL KOTIB

Abdunabi  
ALIQULOV

## SAHIFALOVCHI

Ulug‘bek  
MAMAJONOV

Jurnal O‘zbekiston Matbuot va axborot agentligida 2017-yil 26-mayda 0560-raqam bilan ro‘yxatga olingan. O‘zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasi Rayosatining 2017-yil 30-martdagi №239/5-sonli qarori bilan qishloq xo‘jalik fanlari bo‘yicha ilmiy jurnallar ro‘yxatiga kiritilgan.

Jurnal 2008-yildan chiqa boshlagan.

Bir yilda 6 marta chop etiladi.

Nashr e‘lon qilingan sana:  
10.09.2024-yil.

Manzil: Toshkent shahri, Chilonzor tumani, Bunyodkor shohko‘chasi.  
50 a-uy, 18-xona.

Tel: (+998 90) 353-37-77  
(+998 90) 946-22-42

Web sayt: karantin-jurnali.uz

Telegram: karantinjurnali

Facebook: karantinjurnali

e-mail: karantinjurnali@mail.ru

## G‘ALLACHILIK

- Н.ИБРАГИМОВ, Л.МИРЗАЕВ.** Кузги буғдойдан сўнг экилган мошда қўлланилган минерал ўғит меъёрларининг қуруқ масса тўплаши ва ҳосилдорликка таъсири ..... 160
- Н.БАХРАМОВА.** Кузги буғдойнинг фотосинтетик кўрсаткичларига турли ўсишни соловчи стимуляторларни турли меъёрларда қўллашнинг таъсири .. 162
- Н.ЭСИРГАПОВА, Ш.РИЗАЕВ.** Уртача шўрланган ерларда кузги буғдойни илдиздан ташқари озиклантиришнинг дон ҳосилига таъсири .. 165
- С.РУСТАМОВ, З.ОЧИЛОВ, К.АЗИЗОВ.** Тоғли лалмикор майдонларда юмшоқ буғдойнинг қимматли белги ва хусусиятларга эга янги нав намуналари ..... 167
- N.DURDIYEV, Z.G‘OPPOROVA, F.G‘OPPOROV.** Ultratezpishar kuzgi bug‘doyni sug‘orish tartiblarining tuproq hajm og‘irligi va suv o‘tkazuvchanligiga ta‘siri ..... 169
- Т.БОЙҚОБИЛОВ.** Кузги буғдойзорлардаги бегона ўтларга қарши дефолиантларнинг десикация самарадорлигини баҳолаш ..... 171
- Н.ХАЙТВАЙЕВА.** Bug‘doy va sholining donidan ajratilgan ayrim *Fusarium* turkumi vakillarining mikotoksiklik xususiyatlari ..... 173
- Г.ДЖУМАНИЯЗОВА, З.ПУЛАТХОДЖАЕВА, Р.РАХМАТУЛЛАЕВА.** Влияние нового органического биоудобрения unumdog на биометрические показатели роста и развития проростков пшеницы и кукурузы..... 176
- Ю.ХОЖАМКУЛОВА, Н.БАХРАМОВА.** Влияние различных слоев воды на количество амилазы, крахмала и белка в зернах риса ..... 180
- Д.ОТАҚУЛОВА.** Нўхат навларининг барг сатҳи шаклланишига уруғ экиш меъёрлари ҳамда ўғитлаш микдорларининг таъсири ..... 183
- Ш.САРМАНОВ, М.РАХМАНҚУЛОВ.** Уруғлик учун етиштирилган арпанинг иктисодий самарадорлик кўрсаткичлари ..... 186
- A.ABDUAZIMOV, M.ISMATOVA.** Soya navlari hosildorligining ekish muddat va me‘yorlariga bog‘liqligi ..... 188
- J.ESHONKULOV, L.ISOYEVA, O.GULMETOV, M.MUHAMMADOV.** Makkajo‘xori nav va duragaylarini bir galgi va mavsumiy tomchilatib sug‘orish me‘yorlari ..... 190
- J.ESHONKULOV, L.ISOYEVA, O.GULMETOV, M.MUHAMMADOV.** Makkajo‘xori nav va duragaylarini turli sug‘orish tartiblarining tuproq suv o‘tkazuvchanligiga ta‘siri ..... 192

## YER-SUV RESURLARI VA TUPROQSHUNOSLIK

- С.ИСАЕВ, У.ЖЎРАЕВ, О.МУРОДОВ.** Такрорий экинларни зовур сувлари билан суғоришда биопрепаратларнинг самарадорлигини баҳолаш ..... 195
- У.САКСОНОВ.** Кузги буғдойни гидрогель полимер бирикмасини қўллаш асосидаги сув тежамкор суғориш технологиясини тупроқнинг туз режимига таъсири ..... 197
- З.ТОҲИЕВ.** Тоғ‘oldi hududlarida yerlarni degradatsiyadan himoya qilishda agrotexnik tadbirlar ..... 199
- X.ABDULLAYEVA, D.MAXKAMOVA, SH.ISXOQOVA.** O‘zbekistonda gipsli tuproqlarning hosil bo‘lishidagi ilmiy nazariyalarning hosil bo‘lishi va rivojlanishi ..... 202
- T.ORTIQOV, I.BOBOBEKOV, N.YUSUPOVA.** Mineral va organik o‘g‘itlarning o‘tloqi-bo‘z tuproqda yetishtirilgan moychechchak o‘sishi va rivojlanishiga ta‘siri ..... 205
- Ш.МИРЗАХОДЖАЕВ, Г.САЛИМОВ, Х.ШОДИЕВ.** Ўйрик қўчатларни тупроғи билан қазиб олувчи ва экувчи комбинацияланган қазиб-трансплантация блокни асослаш ..... 207
- Ш.НАРБАЕВ, М.АТАКОВ.** Шаҳар худудларида ер мониторингини инновацион технологиялар асосида ўтказиш ва баҳолашни такомиллаштириш йўналишлари ..... 209
- Д.УТАМБЕТОВ, Е.САДЫКОВ, А.САГИДУЛЛАЕВ, Ф.НУРУЛЛАЕВ, Н.ПОЛАТОВ.** Амударёнинг куйи оқида қишлоқ хўжалиги экинларини етиштиришда ресурстежовчи технологияларни қўллаш истиқболлари ..... 213
- SH.ALIMAXAMATOVA.** Shamol eroziyasini aniqlash, bashorat qilish va shamol eroziyasining o‘simlik qoplamiga ta‘sirini tahlil qilish ..... 215